

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA MINIATYURANING AHAMIYATI

Ayubova Shoxsanam

*Namangan davlat pedagogika instituti Tasviriy
san'at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
ayubovashohsanam2004@gmail.com
tel:905554946*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tasviriy san'atida miniatyurani ahamiyati xususida so'z yuritilib, tarixiy davrlardan hozirgi kundagi miniatyura kompozitsiyalarini rivojlanish bosqichlari hamda Sharq xalqlari madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan, jahon tamadduni xazinasini o'zining ajoyib qimmatbaho durdonalari bilan boyitgani, butun dunyo tamadduni tarixida salmoqli o'rin olgan zamonaviy o'zbek miniatyura san'atining ifodaviy vositalari xalq ustalari tomonidan o'rganib kelingan tasviriy ijodiy faoliyatini miniatyura san'ati orqali shakllantirish masalasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, nafosat va go'zallik, iste'dod, badiiylilik, hunarmand, musavvir, naqqosh, hattot, kompozitsion yechim, lok, grafika, sir, tasavvur, mahobatli

Kirish: Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkamizning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni yangilashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Ma'lumki ajdodlarimiz tomonidan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni kelajak hayotga tayyorlash, ijodiy faoliyatga, odob-axloqli bo'lishga, ilm olishga, foydali yumushlar bilan shug'ullanishga tayyorlash ishlari Sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan noyob amallardandir. Shu bilan birga azaliy qadriyatlarimiz bo'lgan milliy hunarmandchilik san'ati ana'nalarimizni kelajak avlod uchun yetkazib berishdan iborat. Ta'lim-tarbiya ishlarining qonun bilan himoyalaniishi, barcha tashkiliy, rahbarlik va ta'minot ishlarining davlat tasarrufida bo'lishi, xalqimizning o'z kelajagi uchun saqlab qolish borasidagi milliy merosimizga bo'lgan jiddiy e'tibordan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Ma'lumki, diyorimiz jahon tarixi va tamaddunining eng qadimiy makon va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab bebaho arxeologik maskanlar, me'moriy va yozma yodgorliklar, amaliy san'at va xalq ijodiyati namunalari, bularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy – ma'naviy merosidir. Sharq xalqlarining uzoq tarixida, hatto odamzod paydo bo'lishining

boshlang'ich davrlarida, masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida, quldorlik jamiyati tuzumida ham yosh bolalarning, kelajak avlodning tarbiyasiga e'tibor berib kelingan.

Albatta Sharq miniatyurasi o'rganish, tomosha qilish zavq olish go'zallik bilan oshufta bo'lib qolmasdan, Sharqning bugungi kundagi san'at sarchashmalarini ham ilmiy-estetik tomonlama ham tasavvur etish zaruratidir.

Miniatyura rangtasvir markazlari tarixan tarkib topgan yirik viloyatlarining bosh shaharlari Eronda Sheroz, keyinroq Isfaxon, Kazvin, Tabriz, Xurosonda Hirot, Movarounnaxrda Samarqand va Buxoro bo'lgan bu markazlarda asosiy texnik usullarning yagonaligi, estetik jabhalarda umumiylik jihatlaridan o'ziga xos badiiy maktablar shakllangan. Movarounnahr miniatyura rangtasviri shakllanishi haqida ma'lumotlar XIV asr oxiri, Amir Temurning buyuk davlatiga asos solingan davrga borib taqaladi.

O'rta Sharq miniatyura rangtasvirining gullab-yashnashi XV-XVII asarlariga to'g'ri keladi. Bu san'at ko'p jihatdan dunyoviy yo'nalishlar kuchaygan muhit bilan bog'liq bo'lib, musavvirlar hayotiy voqealar, tarixiy va adabiy qaxramonlarni tasvirlash imkoniga ega edilar. Sharq miniatyurasi o'ziga xos badiiy ifoda tiliga ega bo'lib, unda makonning olis yaqinligi, qisqarilshi va yorug'lik qonunlari asosiy vosita sifatida talqin etilmaganligi bilan ajralib turadi.

XVII asrda bir xil O'rta Osiyo rassomlari o'z vatanidan uzoqda miniatyura san'atida anan'alarni davom ettirishga majbur bo'lishdilar. Rassom Davlat Muhammad Xindistonda Boburiylar saroyida sulton va ularni oilalarini, saroy amirlarini, shoirlarining suratlarini yaratdi. Shu davrda Xindistonda Muhammad Murod Samarqandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret ustasi nomini oldi.

Miniatyura san'ati o'zbek xalqining qadimiy eng nafis ijod turlaridan biridir. Tarixiy manbalarga ko'ra, surat solingan lokli qutichalar XVI asrda Buxoroda yasalgan ekan. Bu davrdagi lokli miniatyura namunalari bizgacha yetib kelmagan, hunarmandchilikning bu turiga xos bo'lgan ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari esa unutilib ketgan. Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi haqiqatni-kuzatib hayotni tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma'lum qonun qoidalariga amal qilgan holda asar yaratdi. Asrimizning yetmishinchi yillarida O'zbekiston madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, bu davrda tasviriy san'atning toshqog'ozga chiziladigon lokli rangtasvir turi–miniatyura san'ati paydo bo'ldi. Aynan o'sha davirda xalq san'atining barcha turlarini saqlab qolish, rivojlantirish va qayta tiklash maqsadida nafis naqshu nigor tajriba – ilmiy ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etildi. O'zbekiston rassomlar uyushmasining badiiy fondi tasarrufidagi "Usta" xalq san'ati birlashmasiga asos soldi. Unga taniqli rassom Chingiz Ahmarov mutasaddi etib tayinlandi. Mazkur ustaxona dargohida iste'dodli yosh rassomlarning ilk miniatyura asarlari bunyodga keldi. "Usta" xalq san'ati birlashmasida o'z ijodiy faolyatda turli miniatyura kompozitsiyalarni milliy g'oyada ijod etayotgan musavvirlardan taniqli o'zbek

musavviri Chingiz Axmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda o'sha paytda yosh, navqiron san'atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G'ayrat Kamolov, Munira Sotiboldiyeva va boshqalar bor edi.

Shomahmud Muhammadjonov ijodi lokli miniatyura bilan shug'ullanadigan ilk musavvirlar avlodi uchun ibrat bo'ldi. O'rta asr Sharq miniatyurasi, uning texnologik usullariga oid chuqur bilim va ayni chog'da akademik dastgohli rangtasvir malakalari Shomahmud Muhammadjonovda o'ziga xos badiiy uslubning shakllanishiga zamin bo'ldi. U naqshlarda O'rta asrlar miniatyurasi qonunlariga amal qiladi. Musavvir qahramonlari ruhiy holatini qiyofa, vaziyat, imo ishoralar, ranglarning ramziy ma'nolari orqali aks ettiradi. Biroq Shomahmud Muhammadjonov O'rta asrlardagi ustalardan farqli ravishda, miniatyura san'atining an'anaviy tizimiga zamonaviy muallifning o'ziga xos badiiy tafakkurini ham singdirishga harakat qiladi. U O'zbekiston tasviriy san'atida an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvidan iborat o'ziga xos yo'nalishning asoschilaridan biriga aylandi. Uning O'zbekiston lokli miniatyurasi rivojiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Badiiy hunarmandchilikning bir necha turlari bilan shug'ullanish musavvirning miniatyura rangtasviri olamidagi ijodiy izlanishlarini yanada boyitdi.

G'ayrat Kamolov toshqog'ozdan (pape-mashe) ishlangan qutichalar, upadonlar, bezakli taxtachalarni bevosita miniatyura bilan bezaydi. Musavvir mavzu tanlashda ko'proq folklor ohanglari-yu, Navoiy dostonlariga murojaat qiladi. G'ayrat Kamolov ijodi rang-barang bo'lib, miniatyura an'alarining Ovrupo realistik rangtasvir usullari bilan birga qo'shib olib borilishi bilan ajralib turadi.

Bahodir Yo'ldoshev iste'dodli miniatyura musavviri. 1961 yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan. 1982 yili Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika institutining badiiy grafika fakultetini tugallagan. 1990 yildan beri Abulqosim madrasasida ijod qilib kelmoqda. U yaratgan miniatyuralarida O'rta asr syujetlari o'z yechimini topgan. Qog'oz va matolardagi musavvirning miniatyura asarlari o'zining noyob kompozitsion yechimi, ranglar uyg'unligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Zilola Sulaymonova – miniatyura musavviri. U bugungi kunda Respublika musavvirlik kollejida mutaxassis o'qituvchi bo'lib ijod qilib kelmoqda. Asarlarida mumtoz Sharq miniatyura yo'nalishi bo'yicha va O'zbek xalq yozuvchilarining ijodiga mansub miniatyura kompozitsiyalarini uchratish mumkin. Uning miniatyura asarlari o'zining noyob kompozitsion yechimi, ranglar uyg'unligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Lokli miniatyura san'ati – g'oyat ulkan qunt, mahorat, bilim, nozik hissiyot talab qiladigan ijod turidir. Hozirgi miniatyura ustasi Sharq mumtoz miniatyurasining yuksak cho'qqilariga bir oz bo'lsada yaqinlashishga intilmasdan ijod qila olmaydi. Musavvirlarning navqiron avlodiga mansub yoshlar o'z ijodlarida avvalo miniatyura

san'atining an'anaviy qonun-qoidalariga amal qilmokdalar. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Respublika Rassomlik kolleji va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining bitiruvchilari Bahodir Yo'ldoshev, Abduhakim Karimov, Anvar Isroilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom Shoyoqubov, Rasul Po'latov, Abdulla Nazirov, Shorasul Shoahmedov, Sunnatulla Po'latov, Faxriddin Rahmatullayev, Shoolim Shomansurov, Kamoliddin Mirzayev, Zilola Sulaymonovalar shular jumlasidandir. Ular "Hunarmand" uyushmasida mehnat qilishadi, yana birovlar erkin ijod bilan mashg'ul. Ijodkorlarning Abulqosim madrasasida joylashgan hujralari o'zining shinamligi, ularda saf tortib turgan tayyor kutichalar, qadimgi qog'ozlarga solingan chizmalar, kitoblar, badiiy materiallar diqqat-e'tiborni tortadi. Ehtimol, qo'lyozma kitoblar ustida ko'z nurini to'kkan O'rta asrlardagi musavvir ustalarni ham ana shunga o'xshagan ijodiy muhit o'rab turgan bo'lsa ne ajab: bu yerda nihoyatda sokin va osoyishta ruhiyat hamda orzu-niyatlar hukm suradi. Bu musavvirlar hali yosh bo'lishlariga qaramay, ularning har biri o'z shogirdlariga ega. Badiiy an'analarning davomiyligi, Sharqdagi ta'lim shakllaridan birining o'ziga xos xususiyatlari ham ana shunda namoyon bo'ladi. Yosh miniatyurachilar asarlarida Sharq miniatyurasining badiiy-uslubiy o'ziga xos xususiyatlari: tasvirning majoziyligi, ranglarning bezakbopligi, suratlardagi nafosat, ijroning puxtaligi saqlab kelinmoqda. Yosh ustalar pape-masheni tayyorlashning qadimiy texnologiyasini saqlab qolgan holda, faqat tabiiy bo'yoq kukunlarga tuxum sarig'ini qo'shib ishlatishmoqda. O'rta asrlardagi miniatyurachi musavvirlar ko'pincha qoliplardan foydalanishgan, vaqti kelib o'z kompozitsiyalarini yaratish maqsadida uzoq vaqt davomida mashhur ustalarning rasmlaridagi ayrim unsurlardan nusxa olishgan. Lakli miniatyura janrida ishlayotgan hozirgi yosh musavvirlar ham o'z amaliyotlarida ana shu tamoyilni qo'llashmoqda. Ular miniatyuraning badiiy qonun-qoidalarini avaylab caqlagan holda tarixiy va zamonaviy mavzularda mualliflik kompozitsiyalarini yaratishmoqda. Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Xamsa", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Xamsa" dostonlari va boshqa tarixiy-adabiy manbalar qahramonlari yosh ustalarning lokli naqshlarida yana qayta gavdalanmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki mustaqillik yillarida o'zbek miniatyura san'atiga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek tasviriy san'atida kuplab miniatyura asarlaridagi turli kurinishga ega bo'lgan ijodiy g'oyadagi kompozitsiyalarni ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 1997 yilda Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil topdi. O'zbekistonninghozirgi san'atida miniatyura – oddiy bir tur bo'lmay, balki lakli miniatyura, devoriy naqshlar, mato va charmdagi miniatyurani o'z ichiga oladigan keng qamrovli badiiy-uslubiy yo'nalishdir. Bugungi kunda miniatyura san'ati aynan ravnaq pallasidadir, miniatyurachi musavvirlar doirasi kengayib, asarlarida badiylik

yuksalib bormoqda. Bu bilan esa hozirgi kun talabidan kelib chiqib miniatyura san'ati turizm infratuzilmasining asosiy vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3509 son Qarori.
2. Polyakova Ye.A, Raximova Z.I. Miniatyura i literatura vostoka. T.87.
3. Ro'zinov, B., Rejabova, S., & Ismoilov, Yu. (2013). Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. *Namangan: Namangan*.
4. Qozoqov T, Ruzinov.B., & Vohidov, A. (2020). Buyuklarga beshik bo'lgan Axsikent yohud Farg'ona allomalari. *Toshkent: Navro'z*.
5. Ruzinov, B.A. Mamadjanova Ch. (2023). Tasviriy san'at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o'rganish va taxlil qilish. *models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(19), 1-8.
6. Ruzinov, B. A. (2022). Fargona vodiysi amaliy sanati. *Journal of new century innovations*, 10(3), 70-74.